**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**AZIZOV MUZAFFAR SULAYMONOVICH**

# BUZILADIGAN VA SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI YUQORI JUFT TARTIBLI XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN MASALALAR

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**UDK: 517.95**

**Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**AZIZOV MUZAFFAR SULAYMONOVICH**

# BUZILADIGAN VA SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI YUQORI JUFT TARTIBLI XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN MASALALAR

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI**
**bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2023.1.PhD/FM835 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Urinov Axmadjon Kushakovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Qodirqulov Baxtiyor Jalilovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| | **Irgashev Baxrom Yusupxonovich**<br>fizika-matematika fanlari nomzodi |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Termiz davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «16» 11 soat $9^{30}$ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.:( +99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, ye-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (310 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19- uy. Tel.:(+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 «7» 11 kuni tarqatildi.

(2023 yil «7» 11 dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.T. Karimov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., dotsent

**I.U.Xaydarov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

**E.T.Karimov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Ma’lumki, jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati o‘rganilayotgan muammolarga mos keladigan matematik modellarni qurish va o‘rganishga olib kelinadi. Xususan, diffuziya va tebranish jarayonlari, statsionar jarayonlar, shuningdek, boshqa fizik jarayonlarning matematik modellari sifatida juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar olinadi. Masalan, giperbolik tipdagi ikkinchi tartibli differensial tenglama sterjenning tebranishlarini ifodalasa, to‘rtinchi tartibli tenglama esa balkaning tebranishlarini aniqlaydi. Xuddi shunday, o‘tkir uchli torning tebranishi ikkinchi tartibli buziladigan differensial tenglama bilan, o‘zgaruvchan qalinlikdagi plastinkaning tebranishi esa to‘rtinchi tartibli buziladigan differensial tenglama bilan ifodalanadi. Bundan ko‘rinadiki, yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni tadqiq etish hozirgi vaqtda matematik fizika tenglamalari nazariyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda jahonda yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun masalalarni qo‘yish va tadqiq etish hamda ularning yechish usullarini ishlab chiqishga qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Bunda yangi lokal va nolokal chegaraviy shartli to‘g‘ri va teskari masalalarni bayon qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga qadar bunday masalalarni qo‘yish va tadqiq etish metodikasi bo‘yicha hamda amaliy ahamiyatiga oid ilmiy maqolalar chop etilgan. Ularning aksariyatida, asosan, ikkinchi va to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun klassik chegaraviy shartli masalalar tadqiq qilingan. Hozirgi kundagi fanning taraqqiyoti ixtiyoriy juft tartibli buziladigan va buzilmaydigan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun yangi noklassik boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni qo‘yish va tadqiq etishni talab etmoqda.

Respublikamizda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqotlar yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, matematik fanlarning ustuvor yo‘nalishlari, xususan, differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar va optimal boshqaruv, amaliy matematika va matematik modellashtirish, matematik analiz va funksiyalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, algebra va geometriya bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, matematiklarning asosiy vazifalari va faoliyati sifatida belgilangan[1]. Bugungi kunga qadar ushbu sohalar bo‘yicha muhim ilmiy natijalar qo‘lga kiritildi. Ixtiyoriy juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun yangi chegaraviy shartli boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni qo‘yish va o‘rganish yuqorida qo‘yilgan topshiriqlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 292-son qarori

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi uzoq va boy tarixga ega bo‘lishiga qaramay, yuqori juft tartibli tenglamalarni tizimli o‘rganish o‘tgan asrning 60-yillarida boshlangan. Bugungi kunga qadar to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich va boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning tadqiqoti bo‘yicha juda ko‘p maqolalar nashr etilgan. Xususan, M.S.Salaxitdinov, Dj.Amanov, A.B.Bekiyev, Sh.A.Otarova, A.V.Yuldasheva va M.B.Murzambetovalar to‘rtburchakda to‘rtinchi tartibli buzilmaydigan model tenglamalarni ko‘rib chiqib, bir qator chegaraviy masalalarning yechimi va spektral xossalarini o‘rganishdi, K.B.Sabitov esa korrekt qo‘yilgan yangi boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni bayon qildi va ularning bir qiymatli yechilishini isbotladi. Xuddi shunday, T.K.Yuldashev to‘rtinchi tartibli integro-differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalarni, B.J.Qodirqulov to‘rtinchi tartibli involyutsiyali tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni ko‘rib chiqdi. Keyinchalik Dj.Amanov to‘rtburchakda aralash tipdagi to‘rtinchi tartibli tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni tadqiq etdi. B.K.Boyqo‘ziyev va M.Qosimova chiziqli va chiziqli bo‘lmagan buziladigan to‘rtinchi tartibli tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechilishini o‘rgandilar.

Bir qator tadqiqotchilar tekislikda va ko‘p o‘lchovli fazoda ixtiyoriy juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rgandilar. Masalan, Dj.Amanov va A.V.Yuldasheva, A.I.Kojanov va N.R.Pinigina bir erkin o‘zgaruvchi bo‘yicha yuqori juft tartibli buzilmaydigan differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri to‘rtburchakda boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni tadqiq qildilar, R.R.Ashurov va A.T.Muxiddinova esa ixtiyoriy tartibli musbat o‘z-o‘ziga qo‘shma elliptik differensial operator qatnashgan giperbolik va parabolik tipdagi differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rgandilar. K.B.Sabitov har ikkala erkli o‘zgaruvchilar bo‘yicha ham yuqori juft tartibli buzilmaydigan differensial tenglamani to‘rtburchakda qarab, Dirixle tipidagi masalalarni, B.Y.Irgashev esa bunday tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy va spektral masalalarni o‘rgangan. Yuqori juft tartibli buziladigan tenglamalar uchun to‘rtburchakda boshlang‘ich chegaraviy masalalar K.B.Boyqo‘ziyev, B.S.Kalonov va B.Y.Irgashev tomonidan bayon qilingan va tadqiq etilgan.

Ko‘p o‘lchovli sohalarda ba’zi boshlang‘ich-chegaraviy masalalar fazoviy o‘zgaruvchilari bo‘yicha yuqori juft tartibli ultragiperbolik tenglamalarning ba’zi sinflari uchun B.A.Bubnov va V.N.Vragov, psevdoparabolik, kvazielliptik va "qisman giperbolik" tenglamalar uchun A.I.Kojanov, vaqt o‘zgaruvchisi bo‘yicha yuqori juft tartibli qo‘shma tenglamalarning ba’zi sinflari uchun esa A.I.Kojanov va N.R.Piniginalar tomonidan o‘rganilgan. I.YE.Yegorov va I.YE.Fedorov aralash tipdagi tenglama hamda fazoviy o‘zgaruvchilar bo‘yicha $2m$-tartibli, vaqt o‘zgaruvchisi bo‘yicha mos ravishda $2s$ va $2s+1$ - tartibli vaqt yo‘nalishi o‘zgaruvchi bo‘lgan tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rganishgan, bu yerda $m, s \in N$. SH.G.Qosimov va U.S.Madrahimov geometrik o‘zgaruvchilar bo‘yicha $4k$-tartibli tenglamalar uchun ba’zi boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rganishgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan ishlarda o‘rganilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalalar asosan chegaraviy shartlarning bir nechta ma’lum variantlarini o‘z ichiga oladi. Ravshanki, yuqori juft tartibli differensial tenglamalar uchun yangi chegaraviy shartli boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni tekislikda o‘rganish katta ahamiyatga ega. Mazkur dissertatsiya xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining ushbu muhim muammosiga bag‘ishlangan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Differensial tenglamalar va unga turdosh matematik sohalarning dolzarb muammolari” dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tekislikda yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy va teskari masalalarni qo‘yish va o‘rganish, shuningdek, qo‘yilgan masalalarni tadqiq etish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

to‘rtinchi tartibli singulyar koeffitsiyentli tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar qo‘yish va o‘rganish;

to‘rtinchi tartibli tenglamalar uchun teskari masalalar qo‘yish va o‘rganish;

to‘rtinchi tartibli yuklangan tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar qo‘yish va o‘rganish;

yuqori juft tartibli singulyar koeffitsiyentli tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar qo‘yish va o‘rganish;

yuqori juft tartibli singulyar koeffitsiyentli buziladigan tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar qo‘yish va o‘rganish.

**Tadqiqotning obyekti** ikki o‘zgaruvchili to‘rtinchi va yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** tekislikda yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy va teskari masalalardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida masalalar yechimining yagonaligini isbotlashda spektral usul va energiya integrallari usulidan, yechimning mavjudligini isbotlashda esa Furye usuli, Grin funksiyalar usuli, integral tenglamalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

singulyar koeffitsiyentli to‘rtinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan xususiy hosilali tenglama uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimi Furye usuli yordamida bir qiymatli topilgan;

to‘rtinchi tartibli yuklangan model tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishini ta’minlaydigan shartlar Furye usulini qo‘llab aniqlangan;

singulyar koeffitsiyentli yuqori juft tartibli tenglamalar uchun lokal va nolokal boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning korrektligi Furye usuli, Grin funksiyalar usuli, simmetrik yadroli integral tenglamalar usuli hamda spektral analiz usullaridan foydalanib isbotlangan;

singulyar koeffitsiyentli yuqori juft tartibli buziladigan tenglamalar uchun qo‘yilgan lokal boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining yagonalik, mavjudlik va turg‘unlik teoremalari energiya integrallari usuli, Furye usuli, Grin funksiyalar usuli, simmetrik yadroli integral tenglamalar usuli hamda spektral analiz usullaridan foydalanib isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** olingan ilmiy natijalarni shunday matematik modellarga keltiriladigan jarayonlarning sifat xususiyatlarini o‘rganishga hamda qo‘yilgan masalalar yechimini sonli hisoblashga qo‘llash mumkinligidan iborat.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Matematik isbotlar Furye usuli, energiya integrallari usuli va integral tenglamalar usullariga, shuningdek, matematik fikrlash va hisob-kitoblarning qat’iyligiga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishda olingan ilmiy natijalar yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini yanada rivojlantirish uchun asos sifatida foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining amaliy ahamiyati balka va plastinkaning tebranishi, kemasozlik sanoati, mexanika va boshqa sohalarga oid jarayonlarni matematik modellashtirishda qo‘llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buziladigan va singulyar koeffitsiyentli yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun masalalarni tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar yechimining mavjudligi, yagonaligi va turg‘unligi bo‘yicha olingan natijalar AP09259394-sonli “Musbat operatorlar qatnashgan evolyutsion tenglamalar uchun teskari masalalar” loyihasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarida foydalanilgan (Qozog‘iston Respublikasi Fan va oliy ta’lim vazirligi Fan qo‘mitasining Matematika va matematik modellashtirish institutining 2023-yil 16-iyundagi №01-06/91-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni tadqiq etish imkonini bergan;

yuklangan tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar bo‘yicha olingan natijalardan “Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va boshqaruv masalalari va ularni taqsimlangan parametrlarga ega sistemalarni o‘rganishda qo‘llanilishi” mavzu doirasidagi tadqiqot ishlarida foydalanilgan (Rossiya Fanlar Akademiyasining Kabardino-Balkar ilmiy markazi Amaliy matematika va avtomatlashtirish institutining 2023-yil 20-iyundagi № 01-13/42 - sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yuklangan giperbolik va giperbolik-parabolik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni va yuklangan giperbolik tenglamalar uchun boshqaruv masalalarini hal qilish imkonini bergan;

yuqori juft tartibli spektral masalalarni o‘rganishda qo‘llanilgan usul “Bisingulyar masalalar va ularning tadbiqlari” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (O‘sh davlat universitetining 2023-yil 20-iyundagi №803 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori tartibli oddiy differensial tenglamalar uchun ba’zi nolokal umumlashgan spektral masalalarning xos sonlari va xos funksiyalari mavjudligini isbotlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy va ilmiy – amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 28 ta ilmiy ish e’lon qilingan bo‘lib, ulardan 14 tasi ilmiy maqola, shulardan 6 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 7 tasi esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 117 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘rtinchi tartibli tenglamalar uchun masalalar”** deb nomlangan birinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat bo‘lib, u to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali (yuklangan) differensial tenglamalar uchun $\Omega = \{(x,t): 0 < x < p, 0 < t < T\}$ to‘g‘ri to‘rtburchakli sohada to‘g‘ri va teskari masalalar qo‘yishga va o‘rganishga bag‘ishlangan, bu yerda $p, T \in R^{+}$.

1.1-paragrafda $\Omega$ sohada ushbu tenglama

$$Lu \equiv u_{xxxx} + u_{tt} + (2\gamma/t)u_t = f(x,t), \quad 0 < \gamma < 1/2 \qquad (1)$$

uchun quyidagi boshlang‘ich-chegaraviy masala qo‘yilgan va tadqiq etilgan:

**1-masala.** (1) *tenglamaning quyidagi boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi* $u(x,t)\in C_{x,t}^{3,0}(\bar{\Omega})\cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega)$ *yechimi topilsin:*

$$u(x,0)=\varphi_1(x),\ 0\le x\le p;\quad \lim_{t\to 0} t^{2\gamma}u_t(x,t)=\varphi_2(x),\ 0<x<p, \qquad (2)$$

$$u_x(0,t)=\psi_1(t), u_x(p,t)=\psi_2(t), u_{xxx}(0,t)=\psi_3(t), u_{xxx}(p,t)=\psi_4(t), 0\le t\le T, \qquad (3)$$

*bu yerda* $f(x,t)$, $\varphi_i(x)$ $(i=1,2)$ *ва* $\psi_j(t)$ $(j=\overline{1,4})$ *– berilgan funksiyalar.*

Quyidagi teoremalarning o‘rinliligi isbotlangan:

**1-teorema.** *Agar 1-masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir.*

**2-teorema.** *Agar* $g(x,t)\in C_{x,t}^{4,0}(\bar{\Omega})$, $g_{xxxxx}(x,t)\in C(\Omega)\cap L_2(\Omega)$, $g_x(0,t)=g_x(p,t)=0$, $g_{xxx}(0,t)=g_{xxx}(p,t)=0$ *ва* $\varphi_3(x), \varphi_4(x)\in C^4[0,p]$, $\varphi_3^{(5)}(x), \varphi_4^{(5)}(x)\in C(0,p)\cap L_2(0,p)$, $\varphi_3'(0)=\varphi_3'(p)=0$, $\varphi_3'''(0)=\varphi_3'''(p)=0$, $\varphi_4'(0)=\varphi_4'(p)=0$, $\varphi_4'''(0)=\varphi_4'''(p)=0$ *shartlar bajarilsa, u holda 1-masalaning yechimi mavjud, bu yerda* $g(x,t)=f(x,t)-w_{xxxx}(x,t)-w_{tt}(x,t)-\frac{2\gamma}{t}w(x,t)$, $\varphi_3(x)=\varphi_1(x)-w(x,0)$, $\varphi_4(x)=\varphi_2(x)-\lim_{t\to 0}t^{2\gamma}w_t(x,t)$, $0\le x\le p$,

$$w(x,t)=\frac{1}{24p}\left[\psi_4(t)-\psi_3(t)\right]x^4+\frac{1}{6}\psi_3(t)x^3+$$

$$+\left\{\frac{1}{2p}\left[\psi_2(t)-\psi_1(t)\right]-\frac{p}{12}\left[\psi_4(t)+2\psi_3(t)\right]\right\}x^2+\psi_1(t)x.$$

1.2-paragrafda $\Omega$ sohada ushbu tenglama

$$Lu\equiv u_{xxxx}+u_{tt}=Q(t)f(x) \qquad (4)$$

qaralgan, bu yerda $Q(t)\in C(0,T)\cap L(0,T)$ – ma’lum funksiya, $u=u(x,t)$ va $f(x)$ esa noma’lum funksiyalar, va quyidagi boshlang‘ich-chegaraviy masala tadqiq etilgan:

**2-masala.** *Quyidagi xossalarga ega bo‘lgan* $u(x,t)$ *va* $f(x)$ *funksiyalar topilsin:*

*1)* $u(x,t)\in C_{x,t}^{2,1}(\bar{\Omega})\cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega)$, $f(x)\in C(0,p)\cap L(0,p)$;

*2)* $u(x,t)$ *va* $f(x)$ *funksiyalar* $\Omega$ *sohada* (4) *tenglamani qanoatlantirsin;*

*3)* $u(x,t)$ *funksiya quyidagi boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin:*

$$u(x,0)=\varphi_1(x),\quad 0\le x\le p;\quad u_t(x,0)=\varphi_2(x),\ 0<x<p; \qquad (5)$$

$$u(0,t)=0,\quad u(p,t)=0,\quad u_{xx}(0,t)=0,\quad u_{xx}(p,t)=0,\ 0\le t\le T; \qquad (6)$$

$$u(x,T)=\varphi_3(x),\quad 0\le x\le p.$$

**3-masala.** *Quyidagi xossalarga ega bo‘lgan* $u(x,t)$ *va* $f(x)$ *funksiyalar topilsin:*

*1)* $u(x,t)\in C_{x,t}^{2,1}(\bar{\Omega})\cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega)$, $f(x)\in C(0,p)\cap L(0,p)$;

*2) $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalar $\Omega$ sohada* (4) *tenglamani qanoatlantirsin;*
*3) $u(x,t)$ funksiya* (5), (6) *va $u_t(x,T)=\varphi_3(x)$, $0\le x\le p$ shartlarni qanoatlantirsin.*

**4-masala.** *Quyidagi xossalarga ega bo'lgan $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalar topilsin:*
*1) $u(x,t)\in C_{x,t}^{2,1}(\bar{\Omega})\cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega)$, $f(x)\in C(0,p)\cap L(0,p)$;*
*2) $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalar $\Omega$ sohada* (4) *tenglamani qanoatlantirsin;*
*3) $u(x,t)$ funksiya* (5), (6) *va $\int_0^T u(x,t)dt=\varphi_3(x)$, $0\le x\le p$ shartlarni qanoatlantirsin.*

**5-masala.** *Quyidagi xossalarga ega bo'lgan $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalar topilsin:*
*1) $u(x,t)\in C_{x,t}^{2,1}(\bar{\Omega})\cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega)$, $f(x)\in C(0,p)\cap L(0,p)$;*
*2) $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalar $\Omega$ sohada* (4) *tenglamani qanoatlantirsin;*
*3) $u(x,t)$ funksiya* (5), (6) *va $u_t(x,T)+\int_0^T u(x,t)dt=\varphi_3(x)$, $0\le x\le p$, shartlarni qanoatlantirsin.*

Bu yerda $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x)$ va $\varphi_3(x)$ – berilgan funksiyalar, 2- va 4-masalalarda $\varphi_3(0)=0$, $\varphi_3(p)=0$ kelishuv shartlari bajarilsin.

Quyidagi teoremalarning o'rinliligi isbotlangan:

**3-teorema.** *Agar $\forall n\in N$ son uchun $\Delta_{jn}\neq 0$ tengsizlik bajarilsa, u holda 2-5 masala bittadan ortiq yechimga ega bo'lmaydi ($j=\overline{1,4}$), bu yerda*

$$\Delta_{1n}=\lambda_n^2\int_0^T Q(\tau)\sin\lambda_n^2(T-\tau)d\tau,\ \Delta_{2n}=\lambda_n^4\int_0^T Q(\tau)\cos\lambda_n^2(T-\tau)d\tau,$$

$$\Delta_{3n}=\lambda_n^4\int_0^T Q(\tau)\left[1-\cos\lambda_n^2(T-\tau)\right]d\tau,$$

$$\Delta_{4n}=\lambda_n^4\int_0^T Q(\tau)\cos\lambda_n^2(T-\tau)d\tau+\int_0^T Q(\tau)\left[1-\cos\lambda_n^2(T-\tau)\right]d\tau,\ \lambda_n=n\pi/p.$$

**4-teorema.** *Shunday $\delta_1>0$ son mavjud bo'lib, $\forall n\in N$ son uchun $|\Delta_{1n}|>\delta_1$ tengsizlik o'rinli bo'lsin va quyidagi shartlar bajarilsin:*

$$\varphi_1(x),\varphi_3(x)\in C^6[0,p]\cap C^7(0,p),\ \varphi_1^{(7)}(x),\varphi_3^{(7)}(x)\in L_2(0,p),$$

$$\varphi_1^{(2i)}(0)=\varphi_1^{(2i)}(p)=0,\ \varphi_3^{(2i)}(0)=\varphi_3^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,3},$$

$$\varphi_2(x)\in C^4[0,p]\cap C^5(0,p),\ \varphi_2^{(5)}(x)\in L_2(0,p),\ \varphi_2^{(2i)}(0)=\varphi_2^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,2}.$$

*U holda 2-masalaning yechimi mavjud.*

**5-teorema.** *Shunday $\delta_2>0$ son mavjud bo'lib, $\forall n\in N$ son uchun $|\Delta_{2n}|>\delta_2$ tengsizlik o'rinli bo'lsin va quyidagi shartlar bajarilsin:*

$$\varphi_1(x)\in C^8[0,p]\cap C^9(0,p),\ \varphi_1^{(9)}(x)\in L_2(0,p),\ \varphi_1^{(2i)}(0)=\varphi_1^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,4};$$
$$\varphi_2(x),\varphi_3(x)\in C^6[0,p]\cap C^7(0,p),\ \varphi_2^{(7)}(x),\varphi_3^{(7)}(x)\in L_2(0,p),$$
$$\varphi_2^{(2i)}(0)=\varphi_2^{(2i)}(p)=0,\ \varphi_3^{(2i)}(0)=\varphi_3^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,3}.$$

*U holda 3-masalaning yechimi mavjud.*

**6-teorema.** *Shunday $\delta_3>0$ son mavjud bo'lib, $\forall n\in N$ son uchun $|\Delta_{3n}|>\delta_3$ tengsizlik o'rinli bo'lsin va quyidagi shartlar bajarilsin:*

$$\varphi_1(x),\ \varphi_3(x)\in C^{10}[0,p]\cap C^{11}(0,p),\ \varphi_1^{(11)}(x),\ \varphi_3^{(11)}(x)\in L_2(0,p),$$
$$\varphi_1^{(2i)}(0)=\varphi_1^{(2i)}(p)=0,\ \varphi_3^{(2i)}(0)=\varphi_3^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,5};$$
$$\varphi_2(x)\in C^6[0,p]\cap C^7(0,p),\ \varphi_2^{(7)}(x)\in L_2(0,p),\ \varphi_2^{(2i)}(0)=\varphi_2^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,3}.$$

*U holda 4-masalaning yechimi mavjud.*

**7-teorema.** *Shunday $\delta_4>0$ son mavjud bo'lib, $\forall n\in N$ son uchun $|\Delta_{4n}|>\delta_4$ tengsizlik o'rinli bo'lsin va quyidagi shartlar bajarilsin:*

$$\varphi_1(x)\in C^8[0,p]\cap C^9(0,p),\ \varphi_1^{(9)}(x)\in L_2(0,p),\ \varphi_1^{(2i)}(0)=\varphi_1^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,4};$$
$$\varphi_2(x),\varphi_3(x)\in C^6[0,p]\cap C^7(0,p),\ \varphi_2^{(7)}(x),\varphi_3^{(7)}(x)\in L_2(0,p),$$
$$\varphi_2^{(2i)}(0)=\varphi_2^{(2i)}(p)=0,\ \varphi_3^{(2i)}(0)=\varphi_3^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,3}.$$

*U holda 5-masalaning yechimi mavjud.*

1.3-paragrafda $\Omega$ sohada quyidagi tenglama qaralgan:

$$u_{xxxx}+u_{tt}+(2\gamma/t)u_t=f(x),\quad 0<\gamma<1/2,\tag{7}$$

bu yerda $u=u(x,t)$ va $f(x)$ noma'lum funksiyalar va quyidagi masala o'rganilgan:

**6-masala.** *Quyidagi xossalarga ega bo'lgan $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalar topilsin:*

*1) $u(x,t)\in C_{x,t}^{3,1}(\overline{\Omega})\cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega)$, $f(x)\in C(0,p)\cap L(0,p)$;*

*2) $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalar $\Omega$ sohada* (7) *tenglamani qanoatlantirsin;*

*3) $u(x,t)$ funksiya* (5) *boshlang'ich shartlarni,* (6) *va $u(x,T)=\varphi_3(x)$, $0\le x\le p$, chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x)$ va $\varphi_3(x)$ – berilgan funksiyalar.*

Quyidagi teoremalar isbotlangan.

**8-teorema.** *Agar 6-masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u yagonadir.*

**9-teorema.** *Agar $\varphi_j(x)\in C^4[0,p]\cap C^5(0,p)$, $\varphi_j^{(5)}(x)\in L(0,p)$, $\varphi_j^{(2i)}(0)=0$, $\varphi_j^{(2i)}(p)=0$, $j=\overline{0,3}$, $i=\overline{0,2}$ shartlar bajarilsa, 6-masalaning yechimi mavjud.*

1.4-paragrafda $\Omega$ sohada ushbu tenglamalar

$$u_{xxxx}+u_{tt}=v_k(x,t)+f(x,t),\quad k=\overline{1,4},\tag{8}$$

qaralgan, bu yerda $f(x,t)$ - berilgan funksiya, $u=u(x,t)$ - noma'lum funksiya,

$$v_1(x,t)=\sum_{j=1}^m\alpha_j u(x,t_j),\ v_2(x,t)=\sum_{j=1}^m\beta_j u_t(x,t_j),\ v_3(x,t)=\int_0^{t_0}u(x,t)dt,\ v_4(x,t)=\int_0^{t_0}u_{xx}(x,t)dt,$$

$\alpha_j$, $\beta_j$, $t_0$, $t_j$, $j=\overline{1,m}$ – berilgan haqiqiy sonlar bo‘lib, $t_0, t_j \in (0,T]$, $j=\overline{1,m}$; $t_j \neq t_l$, $j \neq l$, $j,l=\overline{1,m}$; $\sum_{j=1}^{m}\alpha_j^2 \neq 0$, $\sum_{j=1}^{m}\beta_j^2 \neq 0$ va quyidagi masala tadqiq etilgan:

**7-masala.** $\Omega$ *sohada* (8) ($k=\overline{1,4}$) *tenglamani qanoatlantiruvchi, soha chegarasida esa* (5) *boshlang‘ich shartlarni va* (6) *chegaraviy shartalarni qanoatlantiradigan* $u(x,t)\in C_{x,t}^{2,1}(\bar{\Omega})\cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega)$ *funksiya topilsin, bu yerda* $\varphi_1(x)$ *va* $\varphi_2(x)$ *– berilgan funksiyalar.*

Quyidagi teoremalar isbotlangan.

**10-teorema.** *Agar* $\forall n \in N$ *uchun* $\Delta_{kn} \neq 0$ ($k=\overline{1,4}$) *tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, u holda 7-masala bittadan ortiq yechimga ega bo‘lmaydi, bu yerda*

$$\Delta_{1n} = 1 - 2\lambda_n^{-4}\sum_{j=1}^{m}\alpha_j \sin^2\left(\lambda_n^2 t_j/2\right), \qquad \Delta_{2n} = 1-\lambda_n^{-2}\sum_{j=1}^{m}\beta_j \sin\left(\lambda_n^2 t_j\right),$$

$$\Delta_{3n} = 1-\lambda_n^{-4}\left[t_0 - \lambda_n^{-2}\sin\left(\lambda_n^2 t_0\right)\right],\ \Delta_{4n} = 1+\lambda_n^{-2}\left[t_0 - \lambda_n^{-2}\sin\left(\lambda_n^2 t_0\right)\right],\ \lambda_n = n\pi/p.$$

**11-teorema.** *Shunday* $\delta_k > 0$ *son mavjud bo‘lib,* $\forall n \in N$ *son uchun* $|\Delta_{kn}| > \delta_k$ ($k=\overline{1,4}$) *tengsizlik o‘rinli bo‘lsin va quyidagi shartlar bajarilsin:* $f(x,t)\in C_{x,t}^{2,0}(\bar{\Omega})$,

$$\left(\partial^3/\partial x^3\right) f(x,t)\in L_2(\Omega), \qquad \left(\partial^{2i}/\partial x^{2i}\right) f(0,t) = \left(\partial^{2i}/\partial x^{2i}\right) f(p,t)=0, \qquad i=\overline{0,1};$$

$$\varphi_1(x)\in C^4[0,p]\cap C^5(0,p),\quad \varphi_1^{(5)}(x)\in L_2(0,p),\quad \varphi_1^{(2i)}(0)=\varphi_1^{(2i)}(p)=0,\quad i=\overline{0,2};$$

$$\varphi_2(x)\in C^2[0,p]\cap C^3(0,p),\quad \varphi_2^{(3)}(x)\in L_2(0,p),\ \varphi_2^{(2i)}(0)=\varphi_2^{(2i)}(p)=0,\ i=\overline{0,1}.$$

*U holda 7-masalaning yechimi mavjud.*

Dissertatsiyaning **“Yuqori juft tartibli tenglamalar uchun masalalar”** deb nomlangan ikkinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat bo‘lib, $\Omega=\{(x,t): 0<x<1; 0<t<T\}$ sohada yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni bayon qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan.

2.1-paragrafda $\Omega$ sohada ushbu tenglama

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + \frac{2\gamma}{t}\frac{\partial u}{\partial t} + (-1)^k \frac{\partial^{2k} u}{\partial x^{2k}} = f(x,t), \quad 0<\gamma<1/2 \tag{9}$$

qaralgan, bu yerda $f(x,t)$ – berilgan funksiya, va quyidagi masala tadqiq etilgan:

**8-masala.** $\Omega$ *sohada* (9) *tenglamani qanoatlantiruvchi, soha chegarasida esa* (2) *boshlang‘ich va quyidagi*

$$\left(\partial^j/\partial x^j\right)u(0,t)=0,\ \left(\partial^{k+j}/\partial x^{k+j}\right)u(1,t)=0,\ j=\overline{0,k-1},\quad 0\le t\le T, \tag{10}$$

*chegaraviy shartlarni bajaruvchi* $u(x,t)\in C_{x,t}^{2k-1,0}(\bar{\Omega})\cap C_{x,t}^{2k,2}(\Omega)$ *funksiya topilsin, bu yerda* $\varphi_1(x)$ *va* $\varphi_2(x)$*– ma’lum funksiyalar.*

Bu yerda dastlab ushbu

$$Mv \equiv (-1)^k v^{(2k)}(x) = \lambda v(x), \quad 0<x<1; \tag{11}$$

$$v^{(j)}(0)=0,\quad v^{(k+j)}(1)=0,\ j=\overline{0,k-1},\tag{12}$$

spektral masalaning sanoqli sondagi musbat xos sonlari mavjudligi va ularga mos xos funksiyalar esa $L_2(0,1)$ da ortonormal ekanligi isbotlangan.

8-masala yechimining mavjudligi, yagonaligi va turg'unligini isbotlash uchun quyidagi lemmadan foydalanilgan:

**1-lemma.** *Faraz qilaylik,* $g(x)\in C^{3k-1}[0,1],\ g^{(3k)}(x)\in C(0,1)\cap L_2(0,1)$ *va* $g(0)=g'(0)=...=g^{(k-1)}(0)=0$, $g^{(k)}(1)=g^{(k+1)}(1)=...=g^{(2k-1)}(1)=0$, $g^{(2k)}(0)=g^{(2k+1)}(0)=...=g^{(3k-1)}(0)=0$ *shartlar bajarilsin. U holda,*

$$\sum_{n=1}^{+\infty}\lambda_n^3 g_n^2\le\int_0^1\left[g^{(3k)}(x)\right]^2dx,\tag{13}$$

*tensizlik o'rinli, bu yerda* $\lambda_n$ *va* $v_n(x)$, $n\in N-$ (11),(12) *spektral masalaning xos sonlari va xos funksiyalari,* $g_n=\int_0^1 g(x)v_n(x)dx$, $g(x)$ *funksiyaning Furye koeffitsiyenti.*

Quyidagi teoremalarning o'rinliligi isbotlangan

**12-teorema.** *Faraz qilaylik,* $\varphi_1(x)$ *va* $\varphi_2(x)$ *funksiyalar uchun 1-lemmaning shartlari bajarilsin,* $f(x,t)$ *funksiya esa* $x$ *o'zgaruvchisi bo'yicha 1-lemmaning shartlarini* $t$ *o'zgaruvchiga nisbatan tekis qanoatlantirsin. U holda ushbu*

$$\begin{aligned}u(x,t)=\sum_{n=1}^{+\infty}\Big\{&a_n t^{1/2-\gamma}J_{1/2-\gamma}\left(\sqrt{\lambda_n}t\right)+b_n t^{1/2-\gamma}J_{\gamma-1/2}\left(\sqrt{\lambda_n}t\right)+\\&+\frac{\pi}{2\cos\gamma\pi}\int_0^t J_{1/2-\gamma}\left(\sqrt{\lambda_n}t\right)J_{\gamma-1/2}\left(\sqrt{\lambda_n}\tau\right)(t/\tau)^{1/2-\gamma}\tau f_n(\tau)d\tau-\\&-\frac{\pi}{2\cos\gamma\pi}\int_0^t J_{\gamma-1/2}\left(\sqrt{\lambda_n}t\right)J_{1/2-\gamma}\left(\sqrt{\lambda_n}\tau\right)(t/\tau)^{1/2-\gamma}\tau f_n(\tau)d\tau\Big\}v_n(x)\end{aligned}\tag{14}$$

*funksiya 8-masalaning regulyar yechimini aniqlaydi, bu yerda* $\lambda_n$ *va* $v_n(x)$, $n\in N$ – (11),(12) *spektral masalaning mos holda xos sonlari va xos funksiyalari;*

$$a_n=(1/2)\left(\sqrt{\lambda_n}/2\right)^{\gamma-1/2}\Gamma(1/2-\gamma)\varphi_{2n},\ b_n=\left(\sqrt{\lambda_n}/2\right)^{1/2-\gamma}\Gamma(1/2+\gamma)\varphi_{1n},n\in N,\tag{15}$$

$$\varphi_{1n}=\int_0^p\varphi_1(x)v_n(x)dx,\ \varphi_{2n}=\int_0^p\varphi_2(x)v_n(x)dx,\ f_n(t)=\int_0^1 f(x,t)v_n(x)dx,n\in N,\tag{16}$$

$J_\nu(z)$ *– birinchi tur Bessel funksiyasi,* $\Gamma(z)$*– Eylerning gamma funksiyasi.*

**13-teorema.** *8-masala bittadan ortiq yechimga ega emas.*

**14-teorema.** *Faraz qilaylik,* $\varphi_1(x)$ *va* $\varphi_2(x)$ *funksiyalar uchun 1-lemmaning shartlari o'rinli bo'lsin,* $f(x,t)$ *funksiya esa* $x$ *o'zgaruvchisi bo'yicha 1-lemmaning shartlarini* $t$ *o'zgaruvchiga nisbatan tekis qanoatlantirsin.*

*U holda 8-masala yechimi uchun quyidagi baho o'rinli:*

$$\|u(x,t)\|^2_{L_2(0,1)}\le K_0\left[\|\varphi_1(x)\|^2_{L_2(0,1)}+\|\varphi_2(x)\|^2_{L_2(0,1)}+\|f(x,t)\|^2_{L_2(\Omega)}\right],\tag{17}$$

*bu yerda* $K_0 \in R^+$ *– o‘zgarmas son,* $\|g(x)\|_{L_2(0,1)} = \sqrt{\int\limits_0^1 g^2(x)dx}$ .

2.2-paragrafda $\Omega$ sohada ushbu tenglama

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + \frac{2\gamma}{t}\frac{\partial u}{\partial t} + \frac{\partial^{4k} u}{\partial x^{4k}} = f(x,t), \quad 0<\gamma<1/2 \qquad (18)$$

qaralgan, bu yerda $f(x,t)$ – berilgan funksiya, va quyidagi masala o‘rganilgan:

**9-masala.** $\Omega$ *sohada* (18) *tenglamani qanoatlantiruvchi, soha chegarasida esa* (2) *boshlang‘ich shartlarni hamda*

$$p\frac{\partial^{2i}}{\partial x^{2i}}u(0,t) = q\frac{\partial^{2i+1}}{\partial x^{2i+1}}u(0,t), p\frac{\partial^{2i}}{\partial x^{2i}}u(1,t) = q\frac{\partial^{2i+1}}{\partial x^{2i+1}}u(1,t),\ i=\overline{0,2k-1}, 0\le t\le T,$$

*chegaraviy shartlarni bajaruvchi* $u(x,t)\in C_{x,t}^{4k-1,0}(\overline{\Omega})\cap C_{x,t}^{4k,2}(\Omega)$ *funksiya topilsin, bu yerda* $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x)$ *– berilgan funksiyalar,* $p, q \in R$ *– berilgan sonlar va* $p \ne 0$.

Bu yerda dastlab ushbu

$$Mv \equiv v^{(4m)}(x) = \lambda v(x),\ 0<x<1; \qquad (19)$$

$$pv^{(2i)}(0) = qv^{(2i+1)}(0),\ pv^{(2i)}(1) = qv^{(2i+1)}(1),\ i=\overline{0,2m-1} \qquad (20)$$

spektral masalaning sanoqli sondagi musbat xos sonlari mavjudligi va ularga mos xos funksiyalar esa $L_2(0,1)$ da ortonormal ekanligi isbotlangan.

9-masala yechimining mavjudligi, yagonaligi va turg‘unligini isbotlash uchun quyidagi lemmadan foydalanilgan:

**2-lemma.** *Faraz qilaylik,* $g(x)\in C^{6m-1}[0,1]$, $g^{(6m)}(x)\in C(0,1)\cap L_2(0,1)$ *va* $pg^{(2j)}(0) = qg^{(2j+1)}(0)$, $pg^{(2j)}(1) = qg^{(2j+1)}(1)$, $j=\overline{0,3m-1}$ *shartlar bajarilsin. U holda,* $\sum\limits_{n=1}^{+\infty}\lambda_n^3 g_n^2 \le \int\limits_0^1\left[g^{(6m)}(x)\right]^2 dx$, *tengsizlik o‘rinli, bu yerda* $\lambda_n$ *va* $v_n(x)$, $n\in N$ *– mos holda* (19),(20) *spektral masalaning xos sonlari va xos funksiyalari,* $g_n = \int\limits_0^1 g(x)v_n(x)dx$ *– esa* $g(x)$ *funksiyaning Furye koeffitsiyenti.*

Ushbu paragrafda quyidagi teoremalar isbotlangan:

**15-teorema.** *Faraz qilaylik,* $\varphi_i(x)$ *funksiyalar* $\varphi_i(x)\in C^{6k-1}[0,1]$, $\varphi_i^{(6k)}(x)\in C(0,1)\cap L_2(0,1)$, $p\varphi_i^{(2j)}(0) = q\varphi_i^{(2j+1)}(0)$, $p\varphi_i^{(2j)}(1) = q\varphi_i^{(2j+1)}(1)$, $i=\overline{1,2}$, $j=\overline{0,3k-1}$, *shartlarni bajarsin,* $f(x,t)$ *funksiya esa* $x$ *o‘zgaruvchisi bo‘yicha* $t$ *o‘zgaruvchiga nisbatan* $f(x,t)\in C^{2k-1}[0,1]$, $f_x^{(2k)}(x,t)\in C(0,1)\cap L_2(0,1)$, *va* $p\,f^{(2j)}(0,t) = q\,f^{(2j+1)}(0,t)$, $p\,f^{(2j)}(1,t) = q\,f^{(2j+1)}(1,t)$, $j=\overline{0,2k-1}$ *shartlarini tekis qanoatlantirsin. U holda,* (14) *qator 9-masalaning yagona yechimini aniqlaydi, bu yerda* $\lambda_n$ *va* $v_n(x)$, $n\in N$ –(19),(20) *spektral masalaning mos holda xos sonlari va xos funksiyalari;* $a_n$ *va* $b_n$ *koeffitsiyentlar* (15) *formulalar bilan,* $\varphi_{1n}$, $\varphi_{2n}$ *va* $f_n(t)$ *lar esa* (16) *formulalar bilan aniqlanadi.*

**16-teorema.** *Faraz qilaylik,* $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x)$ *va* $f(x,t)$ *funksiyalar 2-lemmaning shartlarini bajarsin. U holda, 9-masalaning yechimi uchun* (17) *baho o'rinli.*

2.3-paragrafda $\Omega$ sohada (9) tenglama va quyidagi masala qaralgan:

**10-masala.** $\Omega$ *sohada* (9) *tenglamani qanoatlantiruvchi, soha chegarasida esa* (2) *boshlang'ich shartlarni hamda*

$$p\frac{\partial^j u}{\partial x^j}\bigg|_{x=0} = q\frac{\partial^j u}{\partial x^j}\bigg|_{x=1}, \quad q\frac{\partial^{k+j} u}{\partial x^{k+j}}\bigg|_{x=0} = p\frac{\partial^{k+j} u}{\partial x^{k+j}}\bigg|_{x=1}, \quad j=\overline{0,k-1}, \ 0\le t\le T, \quad (21)$$

*chegaraviy shartlarni bajaruvchi* $u(x,t)\in C_{x,t}^{2k-1,0}(\overline{\Omega})\cap C_{x,t}^{2k,2}(\Omega)$ *funksiya topilsin, bu yerda* $\varphi_j(x)$, $j=\overline{1,2}$*-berilgan funksiyalar,* $p,q\in R$*-berilgan sonlar va* $p^2+q^2\ne 0$.

Bu yerda dastlab ushbu spektral masalaning

$$Mv\equiv(-1)^k v^{(2k)}(x)=\lambda v(x), \quad 0<x<1; \quad (22)$$

$$pv^{(j)}(0)=qv^{(j)}(1),\ qv^{(k+j)}(0)=pv^{(k+j)}(1),\ j=\overline{0,k-1} \quad (23)$$

sanoqli sondagi musbat xos sonlari $p\ne q$ bo'lganda mavjudligi va ularga mos xos funksiyalar esa $L_2(0,1)$ da ortonormal ekanligi isbotlangan.

Ushbu paragrafda quyidagi lemmalar va teoremalar isbotlangan:

**3-lemma.** *Faraz qilaylik,* $g(x)$ *funksiya* $g(x)\in C^{3k-1}[0,1]$, $g^{(3k)}(x)\in C(0,1)\cap L_2(0,1)$ *ва* $pg^{(j)}(0)=qg^{(j)}(1)$, $qg^{(k+j)}(0)=pg^{(k+j)}(1)$, $pg^{(2k+j)}(0)=qg^{(2k+j)}(1)$, $j=\overline{0,k-1}$ *shartlarni bajarsin. U holda,* (13) *tengsizlik o'rinli, bu yerda* $\lambda_n$ *va* $v_n(x)$, $n\in N$ – (22),(23) *spektral masalaning xos sonlari va xos funksiyalari,* $g_n=\int_0^1 g(x)v_n(x)dx$ *esa* $g(x)$ *funksiyaning Furye koeffitsiyenti.*

**17-teorema.** *Faraz qilaylik,* $p\ne q$ *bo'lib,* $\varphi_1(x)$ *va* $\varphi_2(x)$ *funksiyalar 2-lemmaning shartlarini bajarsin,* $f(x,t)$ *funksiya esa* $x$ *o'zgaruvchisi bo'yicha* $t$ *o'zgaruvchiga nisbatan 2-lemmaning shartlarini tekis qanoatlantirsin. U holda,* (14) *funksiya 10-masalaning yagona yechimini aniqlaydi, bu yerda* $\lambda_n$ *va* $v_n(x)$, $n\in N$ –(22),(23) *spektral masalaning mos holda xos sonlari va xos funksiyalari,* $a_n$ *va* $b_n$ *koeffitsiyentlar* (15) *formulalar bilan,* $\varphi_{1n}$, $\varphi_{2n}$ *va* $f_n(t)$ *Furye koeffitsiyentlari esa* (16) *formulalar bilan aniqlanadi.*

**18-teorema.** *Faraz qilaylik, 17-teoremaning barcha shartlari bajarilgan bo'lsin. U holda, 10-masalaning yechimi uchun* (17) *baho o'rinli.*

2.4-paragrafda $\Omega$ sohada (9) tenglama va quyidagi masala qaralgan:

**11-masala.** $\Omega$ *sohada* (9) *tenglamani qanoatlantiruvchi, soha chegarasida esa* (2) *boshlang'ich shartlarni hamda*

